



4. Talabalarni mustaqil loyihalar asosida ishlashga yo‘naltirish, ular tomonidan fizik muammolarga dasturiy yechimlar yaratish jarayonini qo‘llab-quvvatlash kerak.

5. Metodikani amalga oshirishda sun‘iy intellekt texnologiyalarini (masalan, ChatGPT, MATLAB Simulink, PhET simulyatorlari) o‘quv jarayoniga integratsiya qilish samaradorlikni yanada oshiradi.

6. O‘quv dasturlarini ishlab chiqishda fizika kurslarini muhandislik laboratoriyalari va loyihaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali, fizika ta’limi raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan, muhandislik fikrlashga asoslangan, innovatsion va ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi tizimga aylanishi mumkin. Bu esa O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh, texnologik tafakkurga ega bo‘lajak muhandislarni tayyorlashning kafolatli yo‘lidir.

1. Fizika ta’limida dasturlash texnologiyalarini qo‘llash talabalarda muhandislik fikrlash, tahliliy yondashuv, va modellashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

2. Python, MATLAB, Excel kabi dasturlar orqali fizik jarayonlarni modellashtirish — muhandislik amaliyotiga tayyorlaydi.

3. Har bir masala algoritmini tuzish talabalarda kasbiy mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

4. Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boguslavskiy M.V., Milovanov K.Yu. Государственное регулирование создания кольных учебников нового поколения как ведущее направление образовательной политики // Проблемы современного образования. – 2023. – №5. – С. 21–35.

2. Ergasheva L. Dasturlash asosida fizik modellarni o‘qitish metodikasi // Ta’lim va fan yangiliklari. – 2023. – №6. – B. 48–55.

3. Grover B., Pea R. Computational Thinking in K–12 Education: A Review of the State of the Field // Educational Researcher. – 2020. – Vol. 47(1). – P. 13–20.

4. Ivashchenko I.V. Применение цифровых технологий в инженерном образовании. – Санкт-Петербург: Политех-пресс, 2020. – 186 с.

5. Kholmatova T. Fizika fanini muhandislik fanlari bilan integratsiyalash orqali o‘qitish samaradorligi // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2022. – №2. – B. 92–99.

6. Nosirov J.N. Metrologiya va standartlashtirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari // Texnik fanlar axborotnomasi. – 2023. – №5. – B. 73–80.

7. Orlov A.A. Программирование в обучении физике: современные подходы // Физика в школе. – 2021. – №7. – С. 5–11.

8. Polatov A.M. Fizik masalalarni yechishda algoritmik yondashuvning o‘rni // O‘zbekiston fizika jurnali. – 2021. – №4. – B. 57–63.

9. Qodirov A., Ergasheva L. Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida fizika fanini o‘qitishning zamonaviy usullari. – Jizzax: JPI nashriyoti, 2022. – 156 b.

10. Razumovskiy V.G. Инженерное образование в цифровую эпоху. – Москва: Академия, 2022. – 210 с.

11. Shermuxammadov Sh.X. Fizika ta’limida muhandislikka yo‘naltirilgan masalalarni yechish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2023. – 180 b.

12. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT). – Paris: UNESCO Publishing, 2019. – 98 p.

13. Wing J. M. Computational Thinking // Communications of the ACM. – 2017. – Vol. 49, No. 3. – P. 33–35.

14. *European Journal of Engineering Education*. Integration of Physics and Programming in Engineering Curriculum // EJEE. – 2022. – Vol. 47(8). – P. 945–958.

15. *Physics Education Journal*. Digital Modeling in Physics Teaching // IOP Publishing. – 2023. – Vol. 58(4). – P. 1–10.

#### **PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI O‘SMIRLIK DAVRIDA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich**

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrası, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘smirlik davrida psixologik savodxonlikni rivojlantirishning psixologik determinantlari tahlil etiladi. Psixologik savodxonlik — bu shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash, boshqarish, ijtimoiy muloqotda adekvat reaksiya ko‘rsatish hamda o‘z va boshqalar ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olish qobiliyatidir. Tadqiqotda psixologik savodxonlikning kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. O‘smirlik davrida bu determinantlar shaxsning o‘zini anglash, refleksiya va empatiya mexanizmlari orqali rivojlanadi. Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘smirlarning psixologik savodxonligini rivojlantirishga oid psixopedagogik yondashuvlar va metodlar ham asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik savodxonlik, o‘smirlik davri, emotsional intellekt, refleksiya, empatiya, psixologik determinantlar, shaxs rivoji.

## **PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF DEVELOPING PSYCHOLOGICAL LITERACY IN ADOLESCENCE**

**Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich**

University of Business and Science

Department of Pedagogy and Psychology, PhD in Psychology

**Abstract.** This article analyzes the psychological determinants of developing psychological literacy during adolescence. Psychological literacy is defined as an individual’s ability to understand and regulate their emotions, demonstrate adequate responses in social communication, and correctly evaluate their own and others’ mental states. The study presents the close interrelation of psychological literacy with cognitive, emotional, and social factors. In adolescence, these determinants develop through mechanisms of self-awareness, reflection, and empathy. The article also substantiates psycho-pedagogical approaches and methods aimed at enhancing psychological literacy among adolescents within the modern education system.

**Keywords:** psychological literacy, adolescence, emotional intelligence, reflection, empathy, psychological determinants, personality development.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**Файзуллаев Мирзаодил Мирзамуродович**

Университет бизнеса и науки

Кафедра педагогики и психологии, доктор философии (PhD) по психологии

**Аннотация.** В данной статье анализируются психологические детерминанты развития психологической грамотности в подростковом возрасте. Психологическая грамотность рассматривается как способность личности понимать и регулировать собственные эмоции, адекватно реагировать в процессе социального взаимодействия, а также правильно оценивать психическое состояние своё и других людей. В исследовании показана взаимосвязанность психологической грамотности с когнитивными, эмоциональными и социальными факторами. В подростковом возрасте данные детерминанты развиваются через механизмы самопознания, рефлексии и эмпатии. В статье также обоснованы психолого-педагогические подходы и методы, направленные на развитие психологической грамотности подростков в условиях современной образовательной системы.

**Ключевые слова:** психологическая грамотность, подростковый возраст, эмоциональный интеллект, рефлексия, эмпатия, психологические детерминанты, развитие личности.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida o‘smirlarning psixologik savodxonligini rivojlantirish shaxsiy va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Global o‘zgarishlar, raqamli axborot muhitining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri hamda oilaviy-psixologik qadriyatlar transformatsiyasi o‘smir shaxsining psixik rivojlanishida yangi ehtiyoj va muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu bois, o‘smirning psixologik savodxonligini shakllantirish nafaqat ta’lim tizimi, balki butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir.



Psixologik savodxonlik — bu shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash, boshqarish, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini adekvat tutish va boshqa insonlarning hissiy holatini to‘g‘ri talqin eta olish qobiliyatini o‘z ichiga oluvchi integrativ psixologik sifatdir. U shaxsning emotsional, kognitiv va ijtimoiy kompetentligini uyg‘unlashtiradi. Ayniqsa, o‘smirlik davri insonning o‘z “Men”ini anglash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish bosqichi bo‘lganligi sababli, bu davrda psixologik savodxonlikni rivojlantirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik savodxonlikni o‘rganish bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu fenomenning shakllanishida bir qator psixologik determinantlar — emotsional idrok, kognitiv refleksiya, empatiya, o‘zini nazorat qilish va ijtimoiy tajriba hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu determinantlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular o‘smir shaxsining o‘z-o‘zini anglash, emotsional barqarorlik va ijtimoiy faoliyat darajasini belgilaydi.

D. Goulman (1995), P. Salovey va J. Mayer (1997), C. Saarni (2002)larning emotsional intellekt konsepsiyasi, A. Bandura (1986)ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, L.S. Vygotskiy (1984)ning madaniy-tarixiy yondashuvi hamda A.N. Leontyev (1977)ning faoliyat nazariyasi bu jarayonning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Ularning umumiy g‘oyasi shundan iboratki, psixologik savodxonlik insonning kognitiv tajribasi, ijtimoiy o‘zaro ta’siri va emotsional o‘shining natijasi sifatida shakllanadi.

O‘zbekiston sharoitida esa bu masala yoshlar tarbiyasi, o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivoji va ta’lim jarayonida psixologik madaniyatni oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘smirlik davrida kuzatiladigan emotsional beqarorlik, o‘z-o‘zini baholashdagi ziddiyatlar, kommunikativ qiyinchiliklar psixologik savodxonlikning yetarli darajada rivojlanmagani bilan izohlanadi. Shu bois, bu jarayonning psixologik determinantlarini aniqlash va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda ta’lim psixologiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘smirlik davrida psixologik savodxonlikni rivojlantirish masalasi bir necha ilmiy paradigmalarda o‘rganilgan: emotsional intellekt nazariyasi, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, faoliyat yondashuvi va shaxs rivojlanishining madaniy-tarixiy konsepsiyasi. Quyida ushbu yo‘nalishlarning asosiy ilmiy g‘oyalari tahlil qilinadi.

| № | Nazariya yoki yondashuv                | Asoschi olimlar                  | Asosiy g‘oya                                                                                             | O‘smir psixologik savodxonligiga ta’siri                                      |
|---|----------------------------------------|----------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | <b>Emotsional intellekt nazariyasi</b> | D. Goulman, P. Salovey, J. Mayer | Insonning emotsiyalarini anglash, boshqarish va ijtimoiy muhitda ulardan samarali foydalanish qobiliyati | O‘smirda empatiya, emotsional idrok va o‘zini nazorat qilishni rivojlantiradi |
| 2 | <b>Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi</b>   | A. Bandura                       | Inson xulq-atvori kuzatish, taqlid va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi                                | Ijtimoiy tajriba va ijobiy muloqot orqali psixologik savodxonlikni oshiradi   |
| 3 | <b>Faoliyat yondashuvi</b>             | A.N. Leontyev                    | Shaxs rivoji faoliyat jarayonida amalga oshadi, ong faoliyat natijasidir                                 | Faol o‘quv faoliyati orqali refleksiya va o‘zini anglash rivojlanadi          |
| 4 | <b>Madaniy-tarixiy konsepsiya</b>      | L.S. Vygotskiy                   | Psixik rivojlanish ijtimoiy-madaniy muhit ta’siri ostida kechadi                                         | O‘smirda ijtimoiy rollar va qadriyatlarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi        |
| 5 | <b>Shaxsiy o‘shish modeli</b>          | C. Rogers, A. Maslow             | Inson o‘zini rivojlantirishga, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intiladi                            | O‘smirning o‘zini baholashi va psixologik mustaqilligini oshiradi             |

Mazkur nazariyalar psixologik savodxonlikning kompleks tabiati va uning o‘smirlik davrida namoyon bo‘lish mexanizmlarini tushunishga ilmiy asos yaratadi.

D. Goulman (1995) o‘zining “Emotional Intelligence” asarida emotsional idrok va o‘zini boshqarish psixologik savodxonlikning markaziy komponentlari ekanini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, o‘smir shaxsda bu sifatlari rivojlanmaganda, emotsional beqarorlik, stressga beriluvchanlik va kommunikativ to‘siqlar kuchayadi.

A. Bandura (1986)ning “Social Learning Theory” konsepsiyasi esa ijtimoiy tajribaning ahamiyatini ochib beradi. Unga ko‘ra, o‘smir o‘z tengdoshlari, ota-onasi va o‘qituvchilarining xatti-harakatlarini kuzatish orqali o‘z emotsional va ijtimoiy xulq modelini shakllantiradi.

L.S. Vygotskiy (1984)ning madaniy-tarixiy yondashuvi esa o‘smirning psixologik savodxonligi madaniy vositalar — til, muloqot, ijtimoiy qadriyatlar orqali rivojlanishini ko‘rsatadi. U “yaqin rivojlanish



zonasi” tushunchasini kiritib, o’smirda ijtimoiy yordam va ko’mak bilan yuqori psixik funksiyalar shakllanishini asoslab bergan.

Mahalliy olimlardan O. Musurmonova, N. Saidahmedova, M. Raximov, Sh. Yusupova va boshqalar o’smir shaxsida emotsional madaniyat, o’zini anglash va refleksiv fikrlashni rivojlantirish masalalarini o’rganganlar. Ularning tadqiqotlari o’smirlik davrida psixologik savodxonlikning ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog’liqligini tasdiqlaydi.


Psixologik savodxonlik o’smir shaxsining emotsional, kognitiv va ijtimoiy sohalarini qamrab oluvchi murakkab integrativ tizimdir. U o’smirning o’zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, ijtimoiy muhitga moslashish va konstruktiv muloqot yuritish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu sifatlarning shakllanishi tasodifiy emas, balki muayyan psixologik determinantlar ta’sirida yuzaga chiqadi.


Psixologik savodxonlik determinantlari tizimi. Quyidagi jadvalda o’smirlik davrida psixologik savodxonlikni rivojlantiruvchi asosiy determinantlar tizimli ko’rinishda ifodalangan:

| № | Determinant nomi             | Ta’rifi                                                                                     | Psixologik funksiyasi                                                                         |
|---|------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | <b>Emotsional idrok</b>      | O’z va boshqalar hissiyotlarini anglash, nomlash va farqlash qobiliyati                     | Emotsional muvozanatni saqlash, empatiya va ijtimoiy sezgirlikni shakllantirish               |
| 2 | <b>Kognitiv refleksiya</b>   | O’z fikrlari, hissiyotlari va xulq-atvor sabablarini ongli tahlil qilish jarayoni           | O’zini anglash, muammolarni hal qilishda mantiqiy tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi |
| 3 | <b>Empatiya</b>              | Boshqalar his-tuyg’usiga ruhiy hamdardlik bildirish, ularning holatini tushunish qobiliyati | Ijtimoiy moslashuv, o’zaro hurmat va insonlararo ishonchni rivojlantiradi                     |
| 4 | <b>O’zini nazorat qilish</b> | Emotsional reaksiyalarni boshqarish, impulsivlikni kamaytirish va o’zini tutish madaniyati  | Stressga bardoshlilik, konfliktlarni konstruktiv hal etish imkonini beradi                    |
| 5 | <b>Ijtimoiy tajriba</b>      | O’smiring oila, maktab, do’stlik va onlayn muloqotdagi tajribasi                            | Real ijtimoiy vaziyatlarda psixologik savodxonlikni amaliy qo’llashni ta’minlaydi             |

Mazkur determinantlar o’zaro bog’liq bo’lib, har biri boshqasining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Masalan, empatiya o’zini nazorat qilishni mustahkamlaydi, kognitiv refleksiya esa emotsional idrokni chuqurlashtiradi.

**Determinantlar o’rtasidagi o’zaro ta’sir mexanizmi.** Quyidagi diagrammada determinantlarning o’zaro ta’siri va psixologik savodxonlikni shakllantirishdagi o’rni ifodalangan:





Diagrammadan ko’rinib turibdiki, har bir determinant shaxsning ichki va tashqi muvozanatini ta’minlash orqali psixologik savodxonlikning poydevorini shakllantiradi.

O’smir shaxsida determinantlarning rivojlanish dinamikasi. O’smirlik davrida bu determinantlarning rivojlanish bosqichlari farqlanadi. Quyidagi jadvalda bu jarayonning yosh xususiyatlariga ko’ra o’zgarishi keltirilgan:

| Yosh davri (yillar) | Emotsional idrok                                       | Kognitiv refleksiya             | Empatiya                            | O’zini nazorat qilish                | Ijtimoiy tajriba                   |
|---------------------|--------------------------------------------------------|---------------------------------|-------------------------------------|--------------------------------------|------------------------------------|
| 11–13 yosh          | Emotsiyalarni tanib olish boshlanadi                   | O’z fikrini tahlil qilish qiyin | Empatiya past darajada              | Impulsiv reaksiyalar ko’p            | Oila muhitiga bog’liq              |
| 14–15 yosh          | Hissiyotlarni boshqarish shakllanadi                   | O’zini baholash kuchayadi       | Do’stlarga hamdardlik paydo bo’ladi | Emotsional barqarorlik o’sadi        | Maktab va do’stlik muhitida o’sadi |
| 16–17 yosh          | Emotsiyalarni ijtimoiy jihatdan boshqarish o’rganiladi | Refleksiya chuqurlashadi        | Empatiya mustahkamlanadi            | O’zini tutish madaniyati shakllanadi | Ijtimoiy tajriba kengayadi         |

Mazkur tahlil shuni ko’rsatadiki, psixologik savodxonlik o’smirlik davrida bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu jarayonda oilaviy qo’llab-quvvatlash, ta’lim tizimidagi psixologik xizmat, tengdoshlar bilan muloqot va raqamli madaniyat muhim omillar sifatida namoyon bo’ladi.

O’smir psixologik savodxonligini rivojlantirish mexanizmlari. Quyidagi model asosida psixologik savodxonlikni rivojlantirish mexanizmlari tizimlashtirilgan:

| Mexanizm nomi                                  | Mazmuni                                                        | Amalga oshirish vositalari                              |
|------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| <b>Pedagogik-psixologik qo’llab-quvvatlash</b> | O’smirning individual psixik ehtiyojlarini inobatga olish      | Maktab psixologi, sinf rahbari, ota-ona hamkorligi      |
| <b>Trening va reflektiv mashg’ulotlar</b>      | Emotsional va kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish        | Guruhli psixotreninglar, rolik o’yinlar, suhbatlar      |
| <b>Ijtimoiy loyihalarda ishtirok</b>           | O’smirning faol ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash       | Volontyorlik, o’quv klublari, media loyihalar           |
| <b>Raqamli savodxonlikni oshirish</b>          | Internet va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish            | Raqamli madaniyat darslari, onlayn treninglar           |
| <b>Reflektiv tahlil kundaliklari</b>           | O’smirning o’z holati va hislarini yozma tarzda tahlil qilishi | Psixologik kundaliklar, onlayn refleksiya platformalari |

Bu model psixologik savodxonlikni faqat nazariy emas, balki amaliy mexanizmlar orqali rivojlantirish zarurligini ko’rsatadi. O’smirlar uchun psixologik treninglar, raqamli muhitda sog’lom muloqot madaniyatini shakllantirish, hamda individual refleksiya odatini rivojlantirish ularning psixologik barqarorligini oshiradi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar shuni ko’rsatadiki, psixologik savodxonlik o’smir shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishida hal qiluvchi o’rin tutadi. U o’smirning o’zini anglash, emotsiyalarini boshqarish, ijtimoiy muhitda konstruktiv muloqot yuritish hamda o’z xulqini ongli tarzda nazorat qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Mazkur jarayon o’z navbatida murakkab psixologik determinantlar tizimi orqali rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Psixologik savodxonlik – bu o’smir shaxsining kognitiv, emotsional va ijtimoiy faoliyatini birlashtiruvchi tizimli sifat bo’lib, u emotsional idrok, kognitiv refleksiya, empatiya, o’zini nazorat qilish va ijtimoiy tajribaning o’zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi. O’smirlik davrida psixologik



savodxonlikning rivojlanishi emotsional beqarorlikni kamaytirish, o’zini baholashni barqarorlashtirish va ijtimoiy muloqotdagi muvaffaqiyatni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

2. Emotsional idrok va kognitiv refleksiya o’smiring ichki kechinmalarini anglash hamda ularni konstruktiv yo’naltirish imkonini beradi. Bu determinantlar o’zaro sinergetik munosabatda bo’lib, shaxsning emotsional madaniyatini shakllantiradi. Empatiya o’smir shaxsining ijtimoiy muhitga moslashishida, boshqalarni tushunish va ularning holatiga ruhiy hammadlik bildirishda markaziy o’rin tutadi. O’zini nazorat qilish determinantining rivoji o’smirda o’z hissiy reaksiyalarini tartibga solish, impulsiv xatti-harakatlarni kamaytirish va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy tajriba esa bu determinantlarning amaliy tatbiqini ta’minlaydi — o’smirlar oilaviy, maktab va onlayn muloqot jarayonida real hayotiy holatlar orqali o’z psixologik savodxonligini mustahkamlaydi. O’smirlar orasida psixologik savodxonlik darajasi, ularning ijtimoiy faol ishtiroki, raqamli muhitdan foydalanish madaniyati va oilaviy psixologik qo’llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog’liqdir.

**Tavsiyalar.** O’smirlik davrida psixologik savodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

| Yo’nalish                             | Tavsiya mazmuni                                                                                                 | Amalga oshirish mexanizmlari                                                                 |
|---------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1. Ta’lim tizimi uchun</b>         | Maktablarda psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dastur va modullarni joriy etish        | “Psixologik madaniyat darslari”, emotsional intellekt treninglari, refleksiya mashg’ulotlari |
| <b>2. Oila muhitida</b>               | Ota-onalarda emotsional muloqot va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash ko’nikmalarini shakllantirish                    | Psixologik seminarlar, oilaviy konsultatsiyalar, ota-onalar klublari                         |
| <b>3. Maktab psixologlari uchun</b>   | O’smirlarning individual emotsional ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos psixologik yordam ko’rsatish           | Diagnostik testlar, shaxsiy suhbatlar, emotsional barqarorlik mashqlari                      |
| <b>4. Ijtimoiy tarmoqlar muhitida</b> | Raqamli madaniyatni oshirish, salbiy onlayn ta’sirlarga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish            | Onlayn psixologik treninglar, “media-savodxonlik” loyihalari, yoshlar platformalari          |
| <b>5. Ilmiy tadqiqotlar uchun</b>     | O’smirlik davrida psixologik savodxonlik va raqamli ijtimoiy xulq o’rtasidagi bog’liqlikni chuqur tahlil qilish | Psixometrik modellar yaratish, empirik so’rovnomalar, eksperimental tadqiqotlar o’tkazish    |

Psixologik savodxonlikni o’smirlik davrida rivojlantirish, ularning shaxsiy barkamolligi, emotsional muvozanati va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlovchi psixologik poydevordir. Shu bois, bu jarayonni tizimli o’rganish, determinantlarini aniqlash va ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash O’zbekiston ta’lim tizimi oldidagi strategik vazifalardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Goleman, D. (2013). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
2. Elias, M. J. (2015). Social and Emotional Learning: Theory and Practice. New York: Teachers College Press.
3. Saarni, C. (2002). The Development of Emotional Competence. New York: Guilford Press.
4. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68–78.
5. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
6. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. New York: Springer.
7. Leontiev, A. N. (1977). *Activity, Consciousness, and Personality*. Moscow: Progress Publishers.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 169-172.
10. Anvarovna, A. S. , & Kahharova. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ADJUSTMENT OF FIRST YEAR UNIVERSITY STUDENTS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 230–234. Retrieved from <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/439>



11. Ataxo’jayeva, S. A. (2020). INGLIZ TILINI O’RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI. *Science and Education*, 1(1), 403-406.
12. Ataxo’jayeva, S. (2023). EMPIRIAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. *GULDU AXBOROTNOMASI*.–2023.
13. Nortoji Jumayevich Eshnayev, & Shahlo Anvarovna Atakhujaeva (2021). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE. *Academic research in educational sciences*, 2 (CSPI conference 1), 371-375.
14. Atakhujaeva, S. (2023). CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*.
15. Atakho’jayeva, S. A. (2025). Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher In The Conditions Of Digital Education. *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*, 1(4), 75-80.  
<https://www.tlepub.org/index.php/2/article/view/325>
16. Атаходжаева, Ш. А. (2025). Роль Информационных Технологий В Обществе. *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*, 1(4), 17-21.  
<https://tlepub.org/index.php/2/article/view/292>
17. Ataxo’jayeva, S. (2022). SELF-DESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE.
18. Atakhujaeva, S. A. (2022). DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS’ UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 317-319.
19. Ataxo’jayeva, S. (2023). EMPIRIAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH TEACHERS’ SOCIAL INTELLIGENCE.
20. Atakhujaeva, S. (2023). Constructions (Models) Of Social Intelligence In Future English Language Teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*.
21. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 169-172.
22. Atakho’jayeva, S. A. (2025). Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher In The Conditions Of Digital Education. *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*, 1(4), 75-80.  
<https://www.tlepub.org/index.php/2/article/view/325>
23. Anvarovna, A. S. (2025). Pedagogical and Psychological Factors Determining the Effectiveness of the Social-Emotional Competence of a Foreign Language Teacher in Higher Education. *American Journal of Open University Education*, 2(9), 54–59. Retrieved from  
<https://scientificbulletin.com/index.php/AJOUP/article/view/1266>

#### **TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI SHAKLLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Ahmedov Komron Muhammad-Alievich**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [ahmed.com@gmail.com](mailto:ahmed.com@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirish va uning moliyaviy barqarorlikka ta’siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Muallif bank faoliyati samaradorligini ta’minlashda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, foizli va foizsiz daromadlar nisbatini muvozanatlashtirish hamda foiz siyosati samaradorligini oshirish muhim omil ekanini ta’kidlaydi. Tadqiqotda Xalqaro amaliyot (AQSh, Germaniya, Yaponiya va Koreya Respublikasi bank tizimi misolida) tahlil qilingan bo’lib, bank daromadlari tuzilishida innovatsion moliyaviy xizmatlar va investitsiya operatsiyalarining roli asoslab berilgan.

**Kalit so’zlar:** tijorat banklari, daromad manbalari, foizli marja, moliyaviy barqarorlik, foiz siyosati, bank aktivlari, likvidlik.

#### **SPECIFIC FEATURES OF INCOME FORMATION IN COMMERCIAL BANKS**

**Ahmedov Komron Muhammad-Alievich**

Independent Researcher, Kimyo International University in Tashkent

E-mail: [ahmed.com@gmail.com](mailto:ahmed.com@gmail.com)